

**O'TKIR HOSHIMOVNING "DUNYONING ISHLARI" HIKOYASINING BUGUNGI
KUNDAGI O'RNI**

Hamrayev Ilg'or Aktamovich

Samarqand davlat universiteti Urgut filiali Stajyor o'qituvchisi.

Mamadaliyeva Biborifa Zafarboy Qizi

Samarqand davlat universiteti Urgut filiali, Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2 – bosqich 206 – guruhi talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15091175>

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston xalq shoiri, yozuvchi O'tkir Hoshimovning hayoti va ijodidagi o'ziga xoslik hamda yozuvchi qalamiga mansub "Dunyoning ishlari" qissasi haqida badiiy tahlillar, uning bugungi kundagi ahamiyati haqida fikr-mulohazalar bayon etiladi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston xalq shoiri, adabiy-estetik qarashlar, elimiz suygan adib, "Ona", onalik tuyg'usi, "Ayol", ona obrazi, jafokash onalarimiz.

**THE PLACE OF UTKIR KASHIMOV'S STORY "THE WORKS OF THE WORLD" IN
TODAY**

Abstract. This article presents the uniqueness of the life and work of the People's Poet of Uzbekistan, writer Utkir Khashimov, as well as artistic analyses of the story "The Works of the World" by the writer, and its significance today.

Keywords: People's Poet of Uzbekistan, literary and aesthetic views, beloved writer of our country, "Mother", maternal feeling, "Woman", image of mother, our suffering mothers.

**МЕСТО ПОВЕСТИ УТКИРА ХАШИМОВА «ДЕЛА МИРА» В СЕГОДНЯШНЕМ
ВРЕМЕНИ**

Аннотация. В статье рассматривается своеобразие жизни и творчества народного поэта Узбекистана, писателя Уткира Хашимова, а также дается художественный анализ повести писателя «Дела мира», ее значение в наши дни.

Ключевые слова: Народный поэт Узбекистана, литературно-эстетические взгляды, наш любимый писатель, «Мать», чувство материнства, «Женщина», образ матери, наши страдающие матери.

UTKİR KAŞİMOV'UN "DÜNYANIN İŞLERİ" HİKÂYESİNİN BUGÜNKÜ YERİ

Özet. Bu makalede, Özbekistan Halk Şairi, yazar Otkir Haşimov'un eşsiz yaşam ve eserlerinin yanı sıra yazarın "Dünyanın işleri" öyküsünün sanatsal analizi ve günümüzdeki önemi ele alınmaktadır.

Anahtar Sözcükler: Özbekistan Halk Şairi, edebi ve estetik görüşleri, ülkemizin sevilen yazarı, "Anne", annelik duygusu, "Kadın", anne imagesi, acı çeken annelerimiz.

Kirish.

O‘zbekiston xalq shoiri, O‘tkir Hoshimov Toshkentning Do‘mbirobod dahasida 1941 yilning 5 avgustida tavallud topgan bo‘lib, bolaligi urush qiyinchiliklari, muhtojliklari davrida kechgan. Shu tufayli u o‘rta maktabni a’lo baholar bilan bitirgan bo‘lsa ham oilaviy sharoiti yuzasidan ishlab turib o‘qishga majbur bo‘lgan. Elimiz suygan adib badiiy ijodda hikoya, qissa va roman janrining takomiliga samarali hissa qo’sha olgan. Ko‘rinadiki, adibning adabiy tanqidiy qarashlari va estetik dunyoqarashi badiiy ijodlari qatori publissistikada ham yorqin ko‘zga tashlanib turadi. O‘tkir Hoshimov o‘z ijodini she’r va ocherklar yozishdan boshladi.

XX asr ikkinchi yarmi o‘zbek adabiyoti, she’riyati rivojida shoirning munosib o‘rnii bor.

O‘tkir Hoshimovning adabiy-estetik qarashlari, adabiyotning yangi jilolari, xalqona ohanglari, nafis va betakror she’riyati bilan boyitdi. Hamda o‘z asarlari va she’rlarida adabiy-tanqidiy, ilmiy, publitsistik, qarashlar ham xalqimiz orasida o‘z o‘rniga ega.

O‘tkir Hoshimov qissalari 60-70-yillar o‘zbek adabiyotimizdagi ma’naviy -axloqiy muammolarni o‘z adabiy-estetik qarashlarini markazida tutganligi bilan ajralib turadi.

Adibning qissalaridan biri “Dunyoning ishlari” asari bo‘lib, asar katta-kichik hikoyalardan iborat, uzoq yillar davomida yozilgan va to‘liq tarzda 2005-yilda “Sharq nashriyoti” tomonidan nashr etilgan.

Shoir bu asarni dunyodagi barcha onalarga bag‘ishlab yozgan. Asarda “Ona”, “Ayol” siymolari dunyoning barcha millatlari hayotida eng ulug’ va mo‘tabar zotlar hisoblanib, xalqlarning adabiy hayotida asosiy g’oya va obraz shaklida gavdalanan kelinadi. Har bir millatda “Ona” obrazini, ayollik xususiyatlarini birlashtirib turuvchi mushtarak fazilatlar bisyor bo‘lsada, ayni paytada har bir xalqning ona siyomisini boshqa xalqlardan undagi ichki va tashqi dunyosi, fe'l-atvori, tabiatni va dunyoqarashi bilan ajralib turuvchi, farqli jihatlari ham ko‘zga yaqqol tashlanadi.

Jumladan 2015-yilda Yangi asr avlodni nashriyoti tomonidan 336 betli qattiq muqovada nashr etildi. Shu yili Meriyus nashriyoti tomonidan 272 betda, 3000 nusxali qattiq muqovada nashr etildi. Ushbu nashrning ustki qismida qishloq ko‘chasidagi uylar va adibning onasi tasvirilangan.

Kitobning orqa tomonida adibning quyidagi so‘zlari keltirilgan: “Dunyoda hech bir chegarani tan olmaydigan va quyosh kabi muttasil nur sochib turadigan sehrli kuch bor.

Bu Ona mehri! Alloh Onani shunday yaratgan! Darhaqiqat “Odam qalbida qanday oliyjanob tuyg'ular mavjud bo'lsa, bularning barchasi avvalo ona dandir”. Asarni 2005-yilgi nashrida shunday ta'riflagan: “Bu qissa katta-kichik novellardan iborat. Biroq ularning barchasida eng aziz odam — onam siymosi bor. Bundagi odamlarning hammasini o‘z ko‘zim bilan ko‘rganman. Faqat ba’zilarining ismi o‘zgardi, xolos. Bu odamlarning qismati ham qaysidir jihatdan onamga bog‘langan”. Yuqorida aytilganidek O‘tkir Hoshimov ushbu asarini dunyodagi barcha onalarga bag‘ishlab yozgan. Shoir yana asarda jonli va hayotiy tasvirlar, o‘zbekona yondashuv va xarakter, qahramonlar o‘rtasidagi suhbatlar ham asarda o‘z o‘rniga ega asardagi onalar siymosi uning badiiy ifodasi juda go‘zal va betakror tarzda yoritilib berilgan. Asar adibning bolalik davridagi voqealari asosida qurilgan. Sovet davridagi oddiy qishloq oilalaru, odamlar turmush tarzi adibning onasi bilan uyg‘unlashtirib tasvirlangan. O‘tkir Hoshimov shu kichik asarida ham dunyoning ishlarini mujassamlashtirgan.

O‘zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmad qissani shunday tariflagan: “Dunyoning ishlari” asarini qissa emas, doston deb atashni istardim. U qo‘shiqday o‘qiladi. Uni o‘qib turib, o‘z onalarimizni o‘ylab ketamiz. Shu mushfiq, shu jafokash onalarimiz oldidagi bir umr uzib bo‘lmas qarzlarimizning aqalli bittasini uza oldikmi, degan bir andisha, bir savol ko‘z oldimizda ko‘ndalang turib oladi. Qissa bizni insofga, insonni qadrlashga, hurmat qilishga chaqiradi.

Darhaqiqat asarni o‘qib turib onalarimiz siymosi ko‘z oldimizga keladi. Asardagi har bir novella, hikoyalar onalarga bog‘langani ham asarni yanada betakror qilgani tahsinga sazovordir.

Asarni o‘qir ekanmiz ba'zi joylarida yig'laymiz ba'zi joylarida kulamiz. Shukronalar keltirasiz va onangizga bo‘lgan munosabatingiz ijobjiy tarafga o‘zgarib boradi albatta.

Asarning "Gilam paypoq" hikoyasida, onaning deyarli yalangoyoq holatida bolasining umri, uning sog‘lig'i uchun o‘zining sog‘lig'idan voz kechishga, kerak bo‘lsa, uning o‘rniga o‘zi ajalga tik qarashga tayyorligidan buni yaqqol ko‘rish mumkin. O‘zini joni o‘g‘risa ham bolasining qutqarish istagi ona uchun o‘z og‘riqlarini ham sezmasligiga olib keladi. Onaning yagona istagi bolasini kasallikdan qutqarish ilinjida o‘zini solig‘ini o‘ylamay, solig‘idan voz kechib bolasini uchun kurashadi. Muallif hikoyasining mantig‘i hech bir narsa ona hissiyotidan ustun emasligidan dalolat beradi. “Gilam paypoq” hikoyasi hajman kichik bo‘lsa-da, undagi ona obrazi hamda uning kechinmalari, uning tuyg‘ulari kechinmalari hikoyaga nisbatan ancha keng yoritilgan. Hikoyadagi ona obrazi xarakterini quyidagicha tasniflash mumkin:

U farzandi uchun o‘z jonidan kechishga tayyor ayol timsoli;

har qanday qiyinchilikka, dardga bardosh bera oladigan matonat sohibasi;

soddalik, oqko‘ngillik ham uning muhim fazilatidir.

Qisqa qilib aytganda, ijodkor shu kichik hikoyada ham onalarga xos ezgu fazilat va hislatlarning barchasini jamlashga erishgan. Asardagi har bir hikoya bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Chunki undagi ona va farzand shoirning o‘zi hamda uning onasi. Asar onalarga bag‘ishlangani bois uning xarakterini ochishda adib farzand obrazidan foydalanib ish tutadi. Shu bois qissadagi voqealar boshidan oxirigacha ona va farzand bilan bog‘liq holda kechadi.

Onalar millatning tayanchi, asosi. Milliy qadriyatlar va o‘ziga xoslikning bebahoh gavhari, yuksak axloq, ezguliklar javhari. Millat ona tufayli mangu yashaydi. Avlodlar shajarasi u tufayli davom etadi. Millat sha’ni, oriyati, g‘ururi timsoli. Ona nafasida olam ohangi, borliqning musiqasi mujassam, uning iliq, yoqimli sasida hayotbaxsh kuch bor. Biz u orqali, faqat u orqaligina olamni kashf etamiz, uning qatlarini ochamiz. Olam ichra olam bo‘lib yashaymiz. Bir lahza bo‘lsada undan uzilolmaymiz. Ana shunda o‘ktam, jasur, botir, mard o‘g‘lonlar – qalbi mehrga to‘la mushfiq, mehribon, suvratiyu siyrati go‘zal qizlar – shonli, sharafli, barkamol avlodni dunyoga keltirishga umrini bag‘ishlaydigan mo‘tabar onalar dunyoga keladi.

Xususan, asarning “Xiyonat” novellasida ona farzandini faqat halolikka, insonlarga yaxshilik qilishga, yomonliklardan qaytishga undaydi. Hayotimiz davomida ko‘plab insonlar bilan yuzlashamiz. Ularining qaysilaridir yaqin do‘stimiz, qaysisidir sevgan yorimiz. Ammo oradan vaqtlar o‘tgandan so‘ng har bir insondon ham xiyonat ta‘mini totishingiz mumkin ekan.

Hikoyada esa onalar farzand uchun eng yaqin zot sifatida tasvirlanib, undan hech qachon xiyonat ko‘rmaslik ta’kidlangan. Adib ushbu qissaning oxirida: “Onang-chi, onang hech qachon xiyonat qildimi senga!”, degan so‘zlar bilan o‘quvchini mulohaza qilishga chorlaydi.

Onalik mehri, ona muhabbat, faqatgina bolaga g‘amxo‘rlik yoki javobgarlikkina emas, ayni paytda u o‘z olamining naqadar ulug‘vor va barkamol ekani, hayot degan oliv qadriyatga nur va tiriklik baxsh etayotgani timsolidir. Bu muhabbat bola hayotini saqlab qolish, uning bekamu ko‘st, sog‘lom o‘sishi bilan bog‘liq bo‘lgan va butun olamga mehr ulashadigan mo‘jizaga aylanadi.

Ona muhabbat, iliq mehri har qanday xavf-xatardan, hatto, o‘limdan ustun. Ona farzandi uchun hamma narsaga hamisha tayyor. Jigargo‘shasi, bir parcha go‘sht holidagi poloponi xatar oldida bo‘lsa hech ikkilanmay hayotning barcha zavqu shafqidan, sururidan ikkilanmay voz kechadi. O‘zini qurban qilib bo‘lsada farzandini asraydi. Ona ana shunday ruhiy va ma’naviy qudrati bilan ba’zi holatlarda erkaklardan ustun turadigan noyob xilqat. Jafokash onalarimiz hattoki farzandini asrab qolish uchun hayotidan voz kechishdan toymaydigan, qaytmaydigan buyuk qudrat timsoli.

"Iltijo" qissaning eng so'nggi hikoyasi. Adib ushbu qissasida o'z hayotidagi muhim voqeani eslaydi. Oxirgi parchada yozuvchi onasi hayotligida qancha asar yozgan bo'lsa ham, onasiga atab bir asarini bag'ishlamagnligiga afsuslanadi. Ushbu parchadagi eng ta'sirli jumla:

"Meniyam kitob qilib yozsang-chi, o'g'lim", degan so'zlar bo'ladi.

Darhaqiqat, qissada ona qiyofasi keng va to'laqonli tavsiflanadi. Bu tavsiflanish jarayonida adibning adabiy mahorati va individual uslubi ko'zga tashlanadi. Ona mavzusi O'tkir Hoshimov uchun navqiron, abadiy tugallanmas ilhom manbaidir. "Dunyoning ishlari" qissasi muallif har bir farzand vaqtida onasini qadriga yetishi va uning oldidagi burch hamda vazifalarni bajarishi lozimligini eslatadi. Yo'qsa, vaqtlar o'tgandan so'ng afsus qilishi tayin. O'ttizta novellani o'zida jamlagan ushbu asar, o'zbek onalarining kechinmalari, his-tuyg'ulari, go'zal xislatlarini ochib berish bilan birga, farzandlar uchun nasihat hamdir.

Haqiqatan ham, ona bu buyuk zot. Biz ularni yerdagi farishtalarga qiyoslashimiz kerak.

Quyida shoир tomonidan "Dunyoning ishlari" asarida ko'philigidizga qadron bo'lган parchalarni keltiramiz

"Yulduzlar to'la osmonga tikilaman. Ehtimol, osmondagi eng yorug' yulduzlar onalarning jonidir. Ehtimol, onalarning so'ngan yulduzları birlashib quyoshga aylangandir. Oftobni ona deyishlari, ehtimol, shundandir". Deya onalarga tarif ham bergen adib ushbu kichik-kichik qissalarini o'z onasiga va dunyodagi barcha onalarni ulug'lab yozadi. U bu asarini dunyodagi barcha onalar o'qishini xohlashini ham aytib o'tadi.

Adibning onalar haqida yana bir tarifi asarda shunday bayon etilgan.

"Ehtimol, dunyoning bu chetida turib bir odam aytgan qo'shiqni dunyoning narigi chekkasidagi boshqa bir odam tushunmas. Ehtimol, dunyoning bu chekkasida turib bir odam aytgan eng oqilona fikrni dunyoning narigi chekkasidagi boshqa bir odam tushunmas. Biroq dunyoning bu chekkasida turib ona aytgan allaga dunyoning narigi chekkasidagi go'dak bemalol orom oladi. Nega shunaqa? Nahotki, go'dak tushungan narsaga biz tushunmasak? Ehtimol, buning boisi boshqa joydadir. Ehtimol ona tushungan narsani bizlar tushunmasmiz. Balki shuning uchun ham ona – tabiatning eng buyuk ixtirosidir".

Darhaqiqat onalar borki hayot bor. Onalar farzandlari hamisha birga bo'lishini istaydilar.

Qismat esa ularni qanot chiqarishi bilan har yoqqa uchirib ketadi. Hayot loaql shu masalada ham onalarga shafqat qilmaydi. Degan jumlalar bilan ham yoritilgan. Asarda onalar haqidagi hikoya va novellalar o'ziga xos tarzda badiiy mahorat bilan hayotiy tarzda yozilgani bilan bu asarni óqishimiz bilan ko'z oldimizga o'z onalarimizning gavdalanishi hamda ba'zi bir

qissalarda mushfiq onalar haqida gap ketganda ko‘zimizga yosh olishimiz ham asarning o‘quvchi qalbiga yetib borishi bilan birgalikda insoning o‘z onasiga nisbatan bo‘lgan muhabbati mehri oshishini ham guvohi bo‘lamiz. Shoir aytganidek: “Jannat onalar oyog‘i ostida”.

Shoir “Dunyoning ishlari” asarida onalarning tuyg‘usi, hayotiy kechinmalari ular doim farzandi uchun yashashi, onalarning umidlari, onalarning farzandiga bo‘lgan mehr muhabbati asarda juda serjilo tarzda ifoda etilgani uchun ham xalqimiz bu asarni sevib o‘qiydi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda O‘tkir Hoshimov she’riyati o‘zining samimiyligini sodda hamda betakrorligi bilan o‘ziga chorlab turadi. Shoir serqirra ijod sohibi. Shoir “Dunyoning ishlari” asarida jonli va hayotiy tasvirlar, sof o‘zbekona yondashuv va xarakter, qahramonlar o‘rtasidagi suhbatlar o‘quvchini o‘z ta’siriga oladi. Nafaqat millat, balki chin insoniylik tarannumi yozuvchi asarlarida yetakchilik qilishi kitobxon uchun tarbiyaviy va hayotiy saboq bo‘ladi. Xoh jiddiy, xoh hajviy bo‘lsin O‘tkir Hoshimov asarlarida hayot qaynaydi: unda har birimiz o‘zimizni, oilamizni, do‘st-u yorimizni, hatto hech kimga o‘xshamagan onamizni ko‘ramiz... Bir inson umrini qamragan roman bo‘lsin, qator novellalardan iborat qissa yoki hikoya bo‘lsin, janridan qat’i nazar, O‘tkir Hoshimov asarlarida dunyoning ishlari mujassam. Mutolaa har qanday o‘quvchi uchun katta hayotiy xulosa berishiga ishonamiz. Shoir, yozuvchi, jamoat arbobi O‘tkir Hoshimov xotirasi xalqimiz qalbida abadiy barhayotdir.

REFERENCES

1. Abdullayeva O, Hakimov B. O‘tkir Hoshimovning Dunyoning ishlari qissasida badiiy-falsafiy xususiyatlari va İltijo hikoyasi haqida. 2022-yil.
2. Abdushukirova G. O‘tkir Hoshimovning Dunyoning ishlari qissasi badiiy tahlili. 2020 –yil.
3. Atajonova A. O‘tkir Hoshimovning Dunyoning ishlari qissasida ayol va zamon qiyofasi. 2022-yil.
4. Hoshimov O‘. Yarim asr daftari. – Toshkent 2004-yil.
5. Hoshimov O‘. Dunyoning ishlari. Qissa. – Toshkent.: O‘qituvchi. 2018-yil.
6. Hoshimov, O‘. Tanlangan asarlar. 2-jild. – Toshkent.: Sharq, 2009-yil.